



OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Tolipova O.I.

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi (PhD)

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, ta'lim-tarbiya, sifat, salohiyat, Ta'lim muhiti, ilm-fan, kreativlik, nutq turlari, g'oya.

Ключевые слова: непрерывное образование, образование, качество, компетентность, образовательная среда, наука, творчество, виды речи, идея.

Key words: continuous education, education, quality, competence, educational environment, science, creativity, types of speech, idea.

Bugungi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlantirish jarayonida ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish va zamon talablari asosida yangilash muhim sanaladi. Ta'lim muhitini yangilash degani, albatta, o'tmishning ijobiy g'oyalardan, tajribalaridan voz kechish degani emas, balki, o'tgan davr davomidagi ilmiy salohiyatga tayanish, milliy va umumbashariy, ma'naviy merosni amaliyotga tadbiiq etish hamda xorijiy tajribalarning ijtimoiy-ma'daniy, foydali va samarali jihatlarishi o'zimizga moslagan holda ijtimoiy hayotga olib kirish lozim. [4].

Insoniyat dunyosi hamisha yangilikka intiladi, yangi g'oya va yangicha faoliyat nafaqat kundalik hayotimiz, avvalo, ta'lim-tarbiya tizimi uchun muhim sanaladi. Ta'limda, ilm-fan sohasida yangilik yaratish oson masala emas, bu ko'p mashaqqat, mehnat va tinimsiz izlanishni, atrofda insonlardan ko'ra kengroq fikr-mulohaza yuritishni, kreativlikni talab etadi. Hozirda rivojlanayotgan dunyo, bugungi real hayotning har sohasi uchun kreativ shaxs va uning g'oyalari zarur desak mubolag'a bo'lmas.

Kreativlik va ijodiy fikrlashga bag'ishlangan 60 dan ko'p asar yaratgan doktor Edvard de Bononing fikricha, insonlar kreativ bo'lishga o'rganishlari

mumkin. Buning uchun ularga motivatsiya, hamda yangi muqobil variantlarni izlab topishga yordam beradigan jarayonlar majmui zarur bo'ladi. [5]

Kreativlikning turli xillari mavjud: ushbu kategoriyaning rivojlanish tarixini tahlil qilish bizga tadqiqotimiz davomida kreativlikning ikki turini o'rganish imkonini berdi: "kichik (yoki individual shaxsiy) kreativlik" va "katta (ijtimoiy) kreativlik". Biz kichik kreativlik deganda insonlar har kunlik yangi muammolarni yechishda yangi yo'l bilan yechim topishiga tushunamiz.


Olim A. Maslou [7] Oliy ta'lim tashkiloti talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini birlamchi va ikkinlamchi kreativligini ajratadi, va birlamchi kreativlik, ilhomlangan ijodkorlik bosqichi ikkilamchi kreativlikdan – ijodiy mahsulotning tafsilotlarini berish va unga konkret predmet shaklini berish jarayonidan albatta (majburiy tarzda) farq qilinishi shart.

Ilhomlangan fikr, reja va natija orasida yuzaga keladigan insondan iroda kuchini talab qiladigan jarayonga aytiladi.

ikkilamchi kreativlik insonning o'z yo'lidan qaytmaslik, sabr-bardosh, mehnatsevarlik va bardoshlilik kabi mutlaqo boshqa ezgu jihatlarini o'rganishdan iborat, zero aynan shu xislatlar ijodning ushbu bosiqichi asosida yotadi [8].

Verbal va noverbal (og'zaki va og'zaki bo'lmagan) kreativlikni bir-biridan farq qilish lozim. Verbal kreativlik og'zaki shaklda, masalan, muammoli vaziyatlarda boshqalarga o'xshamagan g'oyalarni taklif etishda, mavhum so'z, og'zaki assotsiatsiyalarni topish imkoniyatida ifodalanadi, va noverbal kreativlik esa – badiiy obrazlar, rasmlar, suratlar va hok. ko'rinishida ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishidir [9] Bizning tadqiqotimiz uchun kreativlikning har ikkala turi muhim, chunki biz faoliyati pedagogik xarakteriga ega bo'lgan va verbal yoki nutqiy kreativlikning rivojlantirilganligini talaba qiladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kreativligini o'rganamiz. Ta'limning badiiy va garfik obrazlar ko'rinishidagi ijodiy qobiliyatlarni namoyish qilish zarur bo'lgan dizaynerlik tarkibiy qismi munosabati bilan (sababli) noverbal kreativlikni rivojlantirish biz uchun qiziqarli. [10]

Xorij olimlarining kreativlikka bergan ta'riflariga yakun yasab biz keltirgan ta'riflarni kreativlikni: kreativ jarayon, kreativ mahsulot, kreativ shaxs va kreativ muhit (soha, struktura, ijod mahsulotiga talablarni shakllantiradigan ijtimoiy kontekst) sifatida o'rganadigan to'rt aspektlar bo'yicha tasniflash mumkin deb o'ylaymiz. Kreativ jarayonga kirishda, kreativ shaxs xislatlarini olib va so'ng kreativ mahsulotda yangilanib (dolzablashib) inson kreativ muhitda faollashadi.



Muammoni kreativ hal qilishga funktsional yondashuv

Muammolarni xal qilish jarayonida ko'plab kreativ fikrlar, g'oyalar paydo bo'ladi. Muammoni kreativ hal qilish yanada funktsional yondashuvni talab qiladi (rasmga qarang).

Kreativ jarayon. Kreativlikni jarayon deb o'rganadigan xorij olimlarning aksariyati (E.P. Torrens [11], X.E. Trik [12]) kreativlik uch amalga bo'linishi haqidagi g'oya bilan ham fikrdirlar.

- farazni ilgari surish amali;
- ijod amali;
- mantiqan ishlab chiqilgan g'oya amali.

A. Puankare kabi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra kreativ jarayon 4 bosqichda amalga oshiriladi [13]:

- tayyorgarlik o'z ichiga vazifani odatiy usul bilan yechishga urinishni oladi;
- inkubatsion davr vazifani yechishning odatiy usullari ish bermasligi, va bu munosabat bilan (shu sababdan) yechim kechiktiriladi (keyingga qoldiriladi) va inson boshqa mashg'ulotlar bilan mashg'ul bo'lishini anglashdan iborat;
- nogahon esga tushib yechimning topilishi ong ostida kutilmaganda javobning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi;
- tekshirish o'z ichiga vazifani har tomonlama tahlil qilishni oladi.
- Tadqiqot ishimizda ijodiy faoliyatni quyidagi turlarini ishlab chiqdik:
 - birlamchi faol faoliyat;
 - ziddiyatni anglash;
 - javoblarni izlashga bo'lgan ehtiyoj;
 - o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini baholay olish;
 - amalga oshish. tasdiqlash,

Ya'ni, kreativlik – yangi, noodatiy aloqalar va birgalikda kelishlarida real voqelikni aks ettirishdir. Kreativlik bilimlarning zarur to'laqlonligi yo'qligi bilan tavsiflanadigan muammoli vaziyat yuzaga kelganda va ushbu ziddiyatni mantiqiy yo'l bilan yechishning imkoni yo'qligi holatida ishga tushadi. Yangi



obrazni shakllantirish sub'ektda mavjud bilimlar yordamida amalga oshadi. Bu yangi obrazlar saralab olish, baholash va umumlashtirishni talab qiladi. [14]

Kreativ mahsulot. Kreativlikning natijalari keng ma'noda keltirilgan: bular xar bir yo'nalishning turli durdona asarlar bo'lishi mumkin [14].

Bunday kreativ jamiyat uchun qimmatga ega (ahamiyatli). Kundalik vazifalarni: yangi nostandart usul bilan yechish kreativlikning kichik yoki shaxsiy mahsulotlari bo'lishi mumkin. Masalan, interʼbarni yangilash, boshqalarga o'xshamagan guldastalar, rasmlar yaratish.

Kreativ mahsulot insonning kasbiy faoliyati bilan bog'liq: adabiyotda – bu badiiy matn, dizaynerlik faoliyatida – maketlar, rasmlar, tashrif kartochkalari, bukletlar, grafik loyihalar va modellar, Kreativ mahsulot pedagogik faoliyatda esa – ijodiy talabalar va o'quvchilardir [14].

Kreativ fikrlashni rivojlantirishning bir qancha vositalari mavjud bo'lib, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, keyslar, matnli topshiriqlar, muammoni xamkorlikda xal qilishga oid ishlanmalar, metodik topshiriqlar va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva SH.A., Sayitov S.S., Xalikova G.I. Istoriya pedagogiki i obrazovaniya. Uchebnik. –T., 2008. -298 c.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. -182-b.
3. Azizzodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. -T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. -167 b. Barkamol avlod orzusi. -T.: SHarq, 1999. -228 b
4. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1993. - 112 b.
5. Боно, Э. Курсы развития мышления/ Э. Боно. - Мн.: ООО «Попурри», 2012. - 128 с. :ил
6. Boden, M.A. Computer models of creativity// Handbook of Creativity. R.J. Sternberg (ed.).Cambridge University Press, 1999. 351-372.
7. Maslow A.X. The father reaches of human nature NY: Viking. – 2001. Harmondworth, Eng: Penguin Books. – 2003. P. 127-134
8. Маслоу, А. Г. Новые рубежи человеческой природы / А.Г. Маслоу. -М.: Смысл., 2011.-495с.
9. Варлакова Ю.Р. Педагогические условия развития креативности студентов / Ю.Р.Варлакова // Педагогическое образование и наука. -2009. - № 4.- С. 73-77
10. Mednick, S.A. The associative basis of the creative process. / S.A. Mednick // Psychological Review. - 1962. - № 69. P. 220-232.
11. Torrence E.P. Developing creative thinking through school experience. // N.Y., 1962. – p. 215
12. X.E.Трик Основные направления экспериментального изучения творчества / X.E. Трик// Общая психология : тексты : в 3 томах / ред. В.В. Петухов. - Издание 2-е, исправленное и дополненное. — Москва : Психология : Генезис, 2002.
13. Пуанкаре А. «О науке» / А.Пуанкаре. М.: Наука. 1990. - 213 с.
14. Варлакова Ю. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск -2013. 178 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, salohiyatli, malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirish jarayonida



ta'lim-tarbiya yo'nalishi ishtirokchilari uchun barcha zarur va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o'quv yurtlari rahbarlari va professor-o'qituvchilariga ham katta mas'uliyat yuklashligi haqidagi tavsiyalar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рекомендуется создать все необходимые и достаточные условия для участников образовательного процесса в процессе реформирования системы непрерывного образования в нашей стране, подготовки компетентных и квалифицированных специалистов, улучшения содержания образования, качества и были даны рекомендации возложить большую ответственность на руководителей учебных заведений и профессорско-преподавательский состав.

SUMMARY

In the article, the reforms in the continuous education system carried out in our country, the training of competent and qualified specialists, the creation of all the necessary and sufficient conditions for the participation in the educational direction in the process of increasing the educational content, quality and efficiency of higher education. recommendations were made that the leaders of the countries and professors should be given a great responsibility.